O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2026-yil 13-yanvardagi “Ayrim bo‘shab qolgan o‘rinlarga mahalliy Kengashlar deputatlarining saylovini tayinlash to‘g‘risida”gi 1457-sonli qaroriga asosan Namangan viloyati, **Uychi tumanini** quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan saylov okrugrida xalq deputatlari **Uychi tuman** Kengashida bo‘shab qolgan deputatlik o‘riniga **2026-yil 15-fevral, yakshanba kuni** saylov bo‘lib o‘tadi.

Mahalliy Kengash nomi	Saylov okrugi nomi	Saylov uchastkasi tartib raqami	Saylov uchastkasi manzili	Saylov uchastkasi chegaralari
Xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi	20-Boyag‘on saylov okrugi	545-saylov uchastkasi	Uychi tumani, Boyag‘on mahalla fuqarolar yig‘ini, A.Temur ko‘chasi 17-uy, **34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi binosi.**	Uychi tumani, Boyag‘on mahalla fuqarolari yig‘ini hududidagi A.Temur, Gulirayxon, Boyag‘on, Mustaqillikning 20 yilligi, Zarbob, Xonabod, Yor, Ko‘xinur ko‘chalari hududlari chegaralarida.
		546-saylov uchastkasi	Uychi tumani, Olmurut mahalla fuqarolar yig‘ini, Navoiy ko‘chasi 826-uy, **22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi binosi.**	Uychi tumani, Olmurut mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi A.Temur, Shodlik, Oxunboboyev, Navoiy, Navruz, Yassi tepa, Yangi bog‘, Xo‘jato‘pi, Namuna, Olmurut, Bobur, Xon, Mustaqillik ko‘chalari hududlari chegaralarida.

2026 yil 15 fevral kuni bo‘lib o‘tadigan saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha hududiy saylov komissiyasining **namangan.saylov.uz** sayti orqali tanishib borish mumkin.

Eslatma!

1. Saylov kuniga qadar yoki saylov kuni **18 yoshga** to‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari saylash huquqiga egadir;
2. Saylov byulleteni saylovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati asosida tegishli saylov uchastkasining saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan fuqarolarga beriladi;
3. Uchastka saylov komissiyalari binolarida muddatidan oldin ovoz berish (2026-yil 9-fevraldan, 13-fevral oxirgi kun) ish kunlari soat **9:00** dan soat **18:00** ga qadar, dam olish kunlari soat **11:00** dan soat **17:00** ga qadar davom etadi.
4. Ovoz berish saylov kuni, ya`ni **15-fevral - yakshanba** kuni soat **8:00** dan **20:00** gacha o‘tkaziladi;

Saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha **Uychi tuman** saylov komissiyasiga murojat qilishingiz mumkin.